

BO'LAJAK TARBIYACHILARDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI VA AXLOQIY JIHATLARI

Uljayeva Sevara Abdirazzoqovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim) magistranti

sevarauljayeva28@gmail.com

+998906162589

Anotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachilarda muloqot madaniyatini shakllantirishning mazmuni va axloqiy jihatlari yoritilgan. Muloqot madaniyatining pedagogik ahamiyati, tarbiyachi faoliyatidagi o'rni, axloqiy fazilatlar bilan bog'liqligi hamda uni rivojlantirishning asosiy shartlari tahlil qilingan. Shuningdek, muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonining kutilayotgan natijalari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: muloqot madaniyati, pedagogik muloqot, nutq madaniyati, axloqiy fazilatlar, tarbiyachi, pedagogik kompetensiya, kasbiy tayyorgarlik.

Annotation: This article discusses the formation of communication culture among future preschool educators, focusing on its essence and ethical aspects. The pedagogical significance of communication, its role in professional activity, ethical qualities, and key conditions for developing communication competence are analyzed. Expected outcomes of developing communication culture in future educators are also presented.

Keywords: communication culture, pedagogical communication, speech culture, ethical qualities, educator, pedagogical competence, professional preparation.

Inson hayotida bilim va ko'nikmalar qanchalik muhim bo'lsa, muloqot madaniyatiga ega bo'lish ham shunchalik zarurdir. Odamning boshqalar bilan muomala qilishi, gapirish madaniyati, o'z fikrini to'g'ri yetkazishi uning yetukligini, madaniy darajasini ko'rsatadi. Ayniqsa, kelajakda tarbiyachi bo'lib ishlamoqchi bo'lgan talabalar uchun muloqot madaniyati juda katta ahamiyatga ega. Chunki tarbiyachi doimo bolalar, ota-onalar, hamkasblar bilan muloqotda bo'ladi, ularning savollariga javob beradi, ularga yo'l ko'rsatadi, ko'mak beradi.

Muloqot jarayoni tarbiyachi faoliyatining asosiy qismidir. Tarbiyachi bolalar bilan suhbatda bo'lib, ularga bilim beradi, tarbiyalaydi, ularda dunyoqarashni shakllantiradi, yaxshi axloqiy fazilatlarni rivojlantiradi. Ammo, afsuski, institutni tamomlayotgan barcha talabalarni ham muloqot madaniyati yetarlicha shakllangan, o'z fikrini aniq bayon qila oladigan mutaxassislar deb bo'lmaydi. Ba'zi talabalar nutqida ortiqcha so'zlardan foydalanadi, fikrini izchil gapira olmaydi, adabiy til me'yorlariga hamisha rioya qilavermaydi. Bu esa kelajakda tarbiyachi sifatida faoliyat yuritishda kamchilik bo'lib

qoladi. Shu sababli, pedagogika institutlarida talabalarning muloqot madaniyatini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Chunki kelajak tarbiyachi avvalo o'z nutqi bilan bolaga ta'sir ko'rsatadi, unga yo'l-yo'riq beradi, yetuk inson bo'lishiga yordam beradi.

Muloqot madaniyatining asosida bir qancha axloqiy fazilatlar yotadi. Eng avvalo suhbatdoshga hurmat ko'rsatish – bu tarbiyachining asosiy burchi. Tarbiyachi bolaning fikriga quloq solishi, uni tushinishi, unga ishonch bildirish kerak. Bundan tashqari adolatli bo'lish, barcha bolalarga bir xil munosabatda bo'lish, mehribonlik, ochiqko'ngillik, madaniyatli muomala qilish – bularning barchasi muloqot madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Agar tarbiyachi shu sifatlarni o'zida shakllantira olsa, u bolalar uchun haqiqiy ustoz va yaqindan yordam beruvchi shaxsga aylanadi.

Bo'lajak tarbiyachilarda muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun bir nechta sharoitlar zarur. Eng avvalo, nutq madaniyati bo'yicha maxsus darslar, mashg'ulotlar o'tkazish kerak. Talabalar to'g'ri talaffuz, ravon gapirish, o'z fikrini lo'nda va tushunarli ifodalashni o'rganishlari lozim. Shuningdek, turli treninglar, rolli o'yinlar, sahna nutqi mashg'ulotlari ham foydali. Talabalar amaliyotga borganda muloqot ko'nikmalarini haqiqiy sharoitda sinab ko'rishadi. Bu ularga yanada tajriba yig'ish imkonini beradi.

Agar muloqot madaniyati yetarli darajada shakllansa, bo'lajak tarbiyachi bolalar bilan bemalol suhbat qila oladi, ularning qalbiga yo'l topadi, tarbiyaviy ishlarda yuqori natijalarga erishadi. Bunday tarbiyachi o'z fikrini aniq ayta oladi, vaziyatni to'g'ri tushunadi, bolalarni ruhlantira oladi va ularga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyachi faoliyati bolalar bilan doimiy muloqotda bo'lish, ularning ehtiyoj va qiziqishlarini tushunish, o'zaro samarali munosabatlar o'rnatishni talab etadi. Zero, muloqot jarayoni orqali tarbiyachi bolalarga ta'lim beradi, ularga pedagogik ta'sir ko'rsatadi, ularda to'g'ri dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, axloqiy fazilatlarni shakllantiradi. Tarbiyachining nutqi, har bir so'zi, ohangi, muomala tarzi bolaning ruhiy holatiga, ijtimoiy faolligiga, o'ziga bo'lgan ishonchiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, muloqot madaniyati bo'lajak tarbiyachining kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Shu bois har bir pedagogika institutida talabalarning nutq madaniyatini, axloqiy fazilatlarini, pedagogik muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida tashkil etilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yo'ldoshev J.G., "Pedagogik muloqot asoslari", Toshkent, 2020.
2. G'afforova T., "Nutq madaniyati va pedagogik etika", Toshkent: Fan, 2019.
3. Karimova V., "Bolalar psixologiyasi", Toshkent, 2021.

4. Hasanboyeva O., “Maktabgacha pedagogika”, Toshkent, 2018.
5. Ziyomuhammadov B., “Pedagogik mahorat”, Toshkent, 2022.
6. Abdullaeva M., “Muloqot madaniyati va pedagogik texnologiyalar”, 2021.

